

OLIV TA'LIM TIZIMIDA FALSAFANI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Ravshanova Gulxayo Abdikaxarovna

TIQXMMIMTU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, OTM, talaba, islohot, ijtimoiy, gumanitar fanlar, metod, innovatsion texnologiya, jamiyat.

Ma'lumki, mamlakatimizda mustaqil va erkin fikrlaydigan, dunyo ilmu fani yutuqlarini puxta o'zlashtirib, zamon bilan hamohang bo'lib yashashga tayyor bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada barcha kuch-qudrat va imkoniyatlarning safarbar etilishi o'zining amaliy natijalarini berdi. Zero, biz uchun bugungi sharoitda fuqarolik pozitsiyasiga ega, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladigan, mamlakatimiz hayotidagi o'zgarish va islohotlarda faol ishtirok etuvchi zamonaviy va keng dunyoqarashli yoshlar avlodini voyaga yetkazish nihoyatda muhim. Shunday kadrlarni tarbiyalamasak, yoshlarimiz biryuqlama shakllanadi. Yosh avlod ma'naviyatsiz bo'lsa, uning yaxshi zamonaviy mutaxassis, faol fuqaro bo'lib shakllanishi amri mahol bo'lib qoladi. Zamonaviy oliy o'quv yurtlarida gumanitar fanlarni o'qitish doimo ilmiy jamoatchilik, o'qituvchilar, doktorantlar va talabalarda katta qiziqish uyg'otib kelgan. Jamiyatimizda kechayotgan katta ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, ta'limning yangi zamonaviy tizimlariga o'tilishi, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarini joriy etish- bularning barchasi oliy ta'limdagi bizga tanish bo'lgan an'anaviy muhitni tubdan o'zgartiradi va ta'lim ishtirokchilaridan ham tegishli munosabatni, faollikni talab qiladi. Bugungi anjuman mavzusi g'oyatda dolzarb, chunki gumanitar fanlarning talaba shaxsini shakllantirishdagi ta'sirini hech kim inkor eta olmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning o'zbek ziyolilari, olimlari va pedagoglari oldiga qo'ygan

muhim masalalardan biri jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, ayniqsa yoshlar ma'naviyatini yuqori saviyaga ko'tarish masalasidir. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni yuqori darajada o'qitilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bugun ta'lim tizimida ma'naviy, axloqiy qadriyatlar, madaniyat va milliy an'analarini saqlash va kelgusi avlodga yetkazish dolzarb muammosi turibdi. Misol uchun XXI asr muhandisi siyosat va iqtisodiyot, madaniyat, milliy an'analar, qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar, turmush tarzi modellari va uning me'yorlarini tushunishi kerak. OTMlarida falsafa fanini o'qitish orqali talabalarning ilmiy dunyoqarashi, vatanparvarlik his tuyg'ulari, bag'rikenglik, xulq-atvorning ijtimoiy me'yorlarini shakllantirish, shuningdek umumiy madaniy saviyasini yaxshilash uchun qaratilgan.

Bugungi kunda falsafa fanining mazmuni va o'qitish usullarini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Pedagogik tadqiqotlar talabalar bilan ishlashning zamonaviy va yangi samarali shakllarini ishlab chiqishga, zamonaviy o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratishga, ilmiy ishlanmalarni rivojlantirishga yordam berdi. Shu sababli, OTMlarda gumanitar ta'lim, xusasn falasafa fanini o'qitish muammosining dolzarbligi va ahamiyati masalasi bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati keyinchalik milliy ilmiy tadqiqot universitetlariga aylanishi mumkin. Jadal rivojlanib borayotgan ta'lim tizimi, ilm-fan va texnologiyalar mutlaqo boshqacha mutaxassisni tayyorlashni davlat va jamiyat oldiga vazifa qilib qo'yimoqda. Bu esa dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh, intellektual salohiyati va professionallik darajasi yuqori mutaxassis-kadri tayyorlashni, va bu mutaxassis kasbiy mahoratidan tashqari xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter texnologiyalarini amalda qo'llay olish malakasini talab qiladi. Afsuski, so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim bosqichlarida, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarga bo'lgan e'tibor sustlashganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. 2000-yillardan boshlab, O'zbekistonda ijtimoiy fanlarga biryoqlama texnokratik yondashuv kuzatilib, bu fanlarga o'ziga xos "begona" fanlar sifatida qarashlar shakllana boshladi. Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fanlar qancha va qaysi yo'nalishlarda, qanday shaklda, qanday mazmunda o'qitilishi haqida yagona

yondashuv haligacha mavjud emas. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondashuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir o'gay qarash shakllanib qolgan. Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta'lim bosqichlarida, ayniqsa oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qanday yo'nalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda o'qitish va o'rgatish bo'yicha yaxlit konsepsiya yo'q. Afsuski, ayrim kaltabin mulozimlarning "Ijtimoiy fanlardan foyda yo'q" qabilidagi nojo'ya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmog'i va sifatini tushirib yuborishga yo'l qo'yildi". Falsafa o'qitiladigan ta'lim muassasalarida o'quv adabiyotlarning kamligi o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolarni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv o'quv elektron versiyalarini yaratish bilan hal qilish mumkin. Bo'lajak mutaxassis nafaqat ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega, balki o'ziga xos insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirgan, ustuvor yo'nalishi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy shaxs bo'lishi kerak. Bu munosabatlar haqidagi tushunchani aniq gumanitar fanlarni o'rganishda olingan umumiy madaniy kompetensiyalar shakllantiradi. Gumanitar ta'limning yana bir muhim vazifasi o'quvchilarda o'z xalqiga, o'z tarixi, madaniyatiga g'amxo'rlik qila oladigan vatanparvar va fuqaro sifatlarini shakllantirish orqali ta'lim vazifalarini amalga oshirishdir. OTMlarda ta'limni insonparvarlashtirish hamda gumanitar fanlarni o'qitishning metodik muammolarini yechish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylangan. Oliy ta'lim tizimining ishlashining zaruriy tamoyili- bu talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish, ularning ma'naviy, axloqiy, insonparvarlik va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan maxsus ijtimoiy-madaniy institut sifatida qarash, talabaolarning ijtimoiy-gumanitar fanlarga professional hurmat bilan qarashga o'rgatish zurruriyatga aylanmoqda. Britaniyaning texnika universitetlarida gumanitar fanlar hajmi 30 foizga teng. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o'qitishni bitta kafedrada amalga oshirish tajribasi o'zining kutilgan samarasini bermaydi. Ijtimoiy fanlarning har biri inson shaxsining shakllanishi jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishga qodir. Ijtimoiy

fanlarni o'qitishning—bir nuqtadan umumiy, standart talablar asosida amalga oshirilishi bu fanlar o'rtasidagi tafovutni yuvib yuboradi, ularning shaxsga ta'sirini kamaytiradi. Shu sababli ham bugungi kunda gumanitar bilimlarni dolzarblashtirish, soha vakillarini ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayoniga jalb etish uchun avvalo munosabat o'zgarishi lozim: jamiyatda o'tkir akademik va ijtimoiy bahslar uyushtirilib, tarixchi, tilshunos, jamiyatshunos va boshqalarning faoliyati taftish etilishi, talablarga ko'ra ijtimoiy buyurtma shakllanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining—O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 8- oktabrdagi PF 5847-son Farmoni.
2. M. Majitov. "Inson shaxsini takomillashtirishda ijtimoiy fanlarni o'qitishning ahamiyati". Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. 2022-yil, 2-son.
3. Н.Н. Азизхўжаева, Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат.— Т.: 2003;— 246 б
4. Asanov E. Gumanitar fanlardan nima naf?// Tafakkur jurnali, 2021-yil, 4-son.
5. Черемных Н.М. Гуманитарное образование в технологическом университете: концепсия и реальность: материалы ВИИ межвуз. учеб.-метод. конф. «Химико технологические вузы и Болонский протсесс. Современные технологии обучения».— М., 2005